

FRAZEOLGIK BIRLIKLARNI SHAKLLANTIRISHDA KO‘MAKCHI SO‘ZLARNING O‘RNI

Xudoynazarova Marjona Farhod qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Hasanov Husniddin Kamol o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili og‘zaki va yozma nutqida faol iste’molda bo‘lgan frazeologik birliklar va ularni shakllantirishda ishtirok etuvchi yordamchi turkum va ko‘makchi so‘zlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ibora, ko‘makchi, yer bilan yakson etmoq, eldan burun, boshi bilan kirib ketmoq.

Аннотация : в данной статье представлена информация о фразах нашего языка, имеющих вспомогательные функции, и их особенностях.

Ключевые слова: идиома, помощник, сравнить с землей, войти носом, головой.

Annotation : this article provides information about phrases in our language that have auxiliaries and their features.

Key words: idiom, helper, to raze to the ground, to go in with the nose, the head.

Tik kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi hisoblanadi. Har bir millat yashayotgan joyning iqtisodiy ijtimoiy tuzumi, san’ati, madaniyati, badiiy adabiyoti urf - odati, xalq og‘zaki ijodini jamlab uni avloddan avlodga yetkazib berish tilning milliy - madaniy semantikasidir.

Semantika tilning barcha qatlamlarida: grammatikasida, leksikasida, fonetikasida ham mavjud. Nutq jarayonida fikrimizni faqat so‘zlar yordamida emas, balki ikki yoki undan ortiq so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan, nutqqa tayyor holda kirib keladigan birliklardan ham foydalanamiz. Yuqorida ta’kidlanganidek, nutqqa tayyor holda kirib keladigan birliklardan biri bu frazemadir. Frazemaga H. Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida shunday ta’rif beriladi: “Frazema ko‘chma ma’noli

turg'un konstruksiyadir. Masalan, zo'raymoq (leksema) - avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema) - azob chekmoq (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi"[1.214.]

Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli Frazzeologik lug'ati" kitobida frazema haqida shunday deyilgan: "Ibora tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish o'z kuchini saqlaydi, o'lmaydi, faqat ichki bo'ladi. Masalan, ko'ngli og'ridi iborasi ichki sintaktik qurilish jihatdan gapga teng, aynan shu iboraning ko'nglini og'ritmoq varianti esa birikmaga teng"[2.10.]

Iboralar so'z birikmasi bilan o'zaro omonimlikni yuzaga keltiradi. Masalan, **qulog'iga quydi** birikmasi **dorini qulog'iga quyidi, nasihatlani qulog'iga quydi** shaklda ishlatiladi, lekin birinchi misolda so'z birikmasi ikkinchisida ibora sifatida qo'llanilyapti, chunki dorini haqiqatdan quloqqa quyish mumkin, lekin nasihatni quloqqa quyib bo'lmaydi.

Frazemalarni shakllantirishda ko'makchilar, bog'lovchilar, kelishik qo'shimchalaridan keng foydalaniladi. Shulardan tarkibida sof va vazifadosh ko'makchilar qatnashgan iboralarni ko'rib chiqamiz.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida ham tarkibida ko'makchi qatnashgan frazemalarni uchratishimiz mumkin. **Masalan, -Mana, Oqqoshshoni yer bilan yakson etdik!** [3.6.] Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan bu frazema o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi, bunda frazemani shakllantirishdagi ko'makchining o'rnini beqiyosdir, agar frazema ko'makchi bilan emas, unga ma'nodosh bo'lgan kelishik qo'shimchasi bilan qo'llanilganda qanday bo'lar edi. **Masalan, -Mana, Oqqoshshoni yerda yakson etdik!** Bunday ko'rinishda qo'llanilsa gapda ham unga obrazlilik bag'ishlayotgan frazemada ham g'alizlik yuzaga keladi, shunday ekan frazemalarni shakllantirishda ko'makchilarning o'rnini ajralib turadi, uning o'rniga sinonimini qo'llashimiz ham xato hisoblanadi. Yana bir misolda **Oqibat - oqtuproq g'o'za eldan burun ochiladi** [3.95.] Bu gapda ibora tarkibida vazifadosh ko'makchi qatnashgan bo'lib uning o'rniga ishlatiladigan so'z iborani oddiy birikmaga aylantiradi. Masalan Oqibat -

oqtuproq g‘o‘za eldan oldin ochiladi. Ko‘rinib turibdiki ko‘makchining o‘rniga ishlatilgan so‘z nafaqat iborani balki gapning ham mazmunini butunlay o‘zgartirib yubordi.

Bu kabi misollarni faqat Tog‘ay Murod ijodidagina emas, balki Oybekning “Qutlug‘ qon” romanida ham uchratishimiz mumkin. ***Masalan, ...mahallaning odamlari orasida yuz bergan har xil janjal va talashuvlarga boshi bilan kirib ketadi.[4.107.]*** Bu asardagi frazemada ko‘makchini ma‘nodoshi bilan almashtirsak, frazema oddiy gapga aylanadi va muallif yoritib bermoqchi bo‘lgan voqeaga umuman teskari bo‘lgan ma‘no yuzaga keladi. ***Masalan, ...mahallaning odamlari orasida yuz bergan har xil janjal va tashvishlarga boshi orqali kirib ketdi.***

Xulosa qilib shuni aytish lozimki frazemalarni shakllantirishda sof ko‘makchilar ham vazifadosh ko‘makchilar ham alohida e‘tiborlidir , lekin ko‘makchilarni frazema tarkibida birining o‘rniga ikkinchisini yoki sinonimini qo‘llash frazemaning mohiyatini yo‘qotib uni oddiy gapga aylantirib yuboradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.H. Jamolxonov "Hozirgi o‘zbek adabiy tili "Toshkent — «Talqin» — 2005.
2. Sh. Rahmatullayev "O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati ".-Toshkent 1978;
3. T. Murod "Otamdan qolgan dalalar" romani Toshkent-1994;
4. Oybek "Qutlug' qon" romani -Toshkent 1969;